

**“O‘ZSANOATQURILISHMATERIALLARI”
UYUSHMASI**

**O‘ZBEKISTON TRANSPORT,
YO‘L VA KAPITAL QURILISH,
QURILISH INDUSTRIYASI
XODIMLARI KASABA
UYUSHMASI RESPUBLIKA
KENGASHI**

QO‘SHMA QARORI

**2026-2028 yillar uchun tuzilgan Tarmoq jamoa kelishuvini tasdiqlash
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, «Aholi bandligi to‘g‘risida»gi, «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi, «Kasaba uyushmalari to‘g‘risida»gi, «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, O‘zbekiston Ish beruvchilari Konfederatsiyasi o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo‘yicha 2026-2028-yillar uchun imzolangan Bosh jamoa kelishuvi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilib, ijtimoiy sherikchilik tamoyillarni qo‘llab mehnatkashlarning huquqlari va manfaatlari himoyasini amalga oshirish maqsadida “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi hamda O‘zbekiston transport, yo‘l va kapital qurilish, qurilish industriyasi xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo‘mitasi

QAROR QILADI:

1. “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tizimidagi tashkilotlar xodimlarining mehnat sharoitlari, ularga taqdim etiladigan ijtimoiy imtiyoz va kafolatlar to‘g‘risidagi 2026-2028 yillar uchun tuzilgan Tarmoq jamoa kelishuvi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kelishuvni Ish beruvchilar nomidan imzolash “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi boshqaruv raisi v.v.b. I.I.Raximovga va mehnat jamoalari nomidan O‘zbekiston transport, yo‘l va kapital qurilish, qurilish industriyasi xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi raisi A.K.Nugmanovga topshirilsin.

3. Tarmoq darajasida doimiy asosda faoliyat ko‘rsatuvchi Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha komissiyaga:

- Tarmoq jamoa kelishuvida belgilangan imtiyoz va kafolatlarni “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tizimidagi xodimlarga to‘liq tadbiiq etilishi borasidagi ishlarni yo‘lga qo‘yish:

- Tarmoq jamoa kelishuvining 2026-2028 yillarda to‘liq bajarilishini ta‘minlash;

- Tarmoq jamoa kelishuvining amal qilinishi ushbu kelishuvni tuzgan tarmoq tarkibidagi xodimlar vakilliklari va ish beruvchilarga nisbatan tatbiiq etilishini inobatga olgan holda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tizimdagi barcha tashkilot va korxonalarni O‘zbekiston transport, yo‘l va kapital qurilish xodimlari kasaba uyushmasi xizmatiga olishni tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

- tizimdagi korxonalarda Tarmoq jamoa kelishuvi bilan jamoa shartnomalarining muvofiqligini, jamoa shartnomalarining oxirgi tavsiya qilingan maketlarga mosligini hamkorlikda o'rganish va qat'iy nazoratga olish;

- Tarmoq jamoa kelishuvi bajarilishining yillik yakunlari to'g'risida axborot tayyorlab, tarmoq kasaba uyushmasi Respublika Kengashi hamda "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi qo'shma majlisida muhokama qilish vazifalari yuklatilsin.

4. 'O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibiga kiruvchi barcha tashkilotlarning rahbarlariga:

- Tarmoq jamoa kelishuvi bilan o'rnatilgan majburiyatlarni bajarish;

- tizimdagi korxonalar va tashkilotlarni O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish xodimlari kasaba uyushmasi xizmatiga o'tkazish;

- rahbarlik qilayotgan korxonalarida Tarmoq jamoa kelishuvi bilan jamoa shartnomalarining muvofiqligini ta'minlash choralari ko'rish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur Kelishuv bajarilishi ustidan nazorat "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi hamda O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi tomonidan tuzilgan Tarmoq darajasida doimiy asosda faoliyat ko'rsatuvchi Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha ikki tomonlama komissiyasiga yuklatilsin.


**"O'zsanoatqurilishmateriallari"
uyushmasi boshqaruv raisi v.v.b.**



I.I. Raximov

2026-yil 29.01. № 10

**O'zbekiston transport, yo'l va kapital
qurilish, qurilish industriyasi xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika Kengashi
raisi**



A.K. Nugmanov

2026-yil 23.01. № 2-144c